



THE IMPORTANCE OF RELIGIOUS-EDUCATIONAL TV PROGRAMS IN THE SOCIETY

Mansurov Musaxon Ma'rufxo'ja o'g'li

Journalism and Mass Communications University of Uzbekistan, a Master Degree Student

Annotation

The scientific article explores and summarizes ideas how TV programs effects on children and youth especially religious-educational tv programs and its content, problems and solutions in religious journalism. The study of Uzbek religious tv chanel as a factor in the spiritual and political development of society was conducted, and analyzes were conducted to encourage children to education process.

Keywords: education, religious programs, television.

Introduction

Din nafaqat inson hayotida, balki butun jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Tarixan insonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatini diniy e'tiqodlar boshqarib kelgan. Ijtimoiy hayot me'yorlari va qadriyatlarining rivojlanishi diniy intilishlarda sodir bo'ldi, din turmush tarzimidagi qadriyatlarni, shaxslarning esa xulq-atvor normalarini belgilab berdi. Ayniqsa, hozirgi davrda dinning zarurligi va hayotiyligini tushunish qiziqarli va dolzarbdir, chunki odamlarning ta'lim darajasi, fan va texnika yutuqlari oshganiga qaramay, diniy e'tiqodlar omma orasida saqlanib qolmoqda va rivojlanmoqda. O'zbekistonda sharqona mentalitet asnosida farzand tarbiyalanadi. Milliy qadriyatlar hamda diniy e'tiqod hamjixatligida yoshlar voyaga yetadilar. Ta'lim va tarbiyaning uyg'unligi hamisha jamiyatimizning rivojlanish bosqichida o'z o'rniga ega bo'lgan. Maktab darsliklari qatoriga "Tarbiya" fani kiritilgani ham bunga yaqqol misoldir. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

O'zbekiston Respublikasi demokratik jamiyat qurish yo'lini tanlagani, shu bilan birga hamisha diniy bag'rikenglikni targ'ib qilib kelishi hech kimga sir emas. Mamlakat aholisining aksariyat qismi (taxminan 88%) islom diniga e'tiqod qiladi. O'zbekiston Musulmonlari Idorasi mamlakatdagi e'tiqod masalalarini nazorat qiladi va sohaga oid turli savollarga oydinlik kiritadi. Jamiyatimiz aholisining **18,9 mln.** nafari yoki **54** foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar va bolalar tashkil etadi. 2021-yil holati bo'yicha bolalar 5-9 yoshgacha 3 341 346 nafar, 10-14 yoshgacha 3 078 367 nafar, yoshlar 15-19 yoshgacha 2 569 705 nafar, 20-24 yoshgacha 2 758 841 nafar, 25-29 yoshgacha 3 218 218 nafarni tashkil etadi. Shundan kelib chiqib din, islom, yoshlar, tarbiya mavzularini chuqurroq yoritish maqsadga muvofiqdir.



«**Din**» so'zi - «itoat, parhez, e'tiqod, hisob, ishonch, mukofot, hukm, yo'l tutish» degan ma'nolarni bildiradi. Islom dini, Alloh buyurgan hukmlar, ibodatlar va aqidalar, yo'l-yo'riqlar majmuidir. Dinimizning asosiy maqsadi insonlarni xayrli va ezgu ishlarga yetaklash, faqat yaxshilikka boshlashdir. Insonlarda yeyish, ichish, uxlash moddiy ehtiyoj bo'lgani kabi, islom dini ham ma'naviy ehtiyojdir. Yoshlik bu - insonning kuch-quvvatga, shijoat-u hayajonga, muammolar va tushkunliklarga to'la bir davridir. Bu jarayonda diniy ta'limning o'rnini va uslubini qayta ko'rib chiqish, bunda yoshlarning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamolotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarur. Biz zavq va tezlik bilan yashayotgan zamonaviy davr, ayniqsa, yoshlarda kuzatilayotgan ko'plab muammolarning manbai hamdir.

Bu muammolarning asosiylari ijodkorlik maqsadidan mahrum qilish, isyonkorlik, mas'uliyatsizlik, ko'z-ko'zchilik, norozilik, milliy-ma'naviy qadriyatlardan uzoqlashish, ichkilik va giyohvandlik, har-xil qimor o'yinlar, nojo'ya xatti-harakatlaridir. Muammolar zahirida hayotning ma'lum bir maqsad yo'lida qurilmagani yotadi. Bu esa yoshlarni ayni lahzada yashashga, o'z rohat va zavq-shavqlari ortidan ergashishga, dabdaba va ko'z-ko'z qilishga, boshqacha bo'lish uchun ma'nosiz xatti-harakatlarga olib keladi. Bugungi muloqot davrida ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, radio, televidenie, internet) bosh aylantiruvchi sur'atlarda rivojlanmoqda va bu vositalar tufayli dunyo global qishloqqa aylanib bormoqda. Ommaviy axborot vositalari orasida, ayniqsa, televideniening shaxs va jamiyatga ta'sirini inkor etib bo'lmaydi. Televideniening jismoniy tuzilishiga qarab, dasturlar tuzilmasining tez o'zgarishi va ilg'or texnologik vositalardan foydalanish jamiyatning har bir qatlami uchun televizor ko'rinishi deyarli majburiy qilib qo'yadi. Televideniyaning paydo bo'lishidan asosiy maqsad jamiyatning talab va ehtiyojlarini qondirish va hayotni osonlashtirishdir. Biroq, bu maqsadni amalga oshirish odamlarning qo'li bilan amalga oshiriladi. Televizorga ega bo'lgan odamlarning mentaliteti, fikri, ehtiyojlari va umidlari uning shaxs va jamiyatga qanday ta'sir qilishini belgilaydi. Televideniya'dagi inson omilining ta'sirchanligi bu vositadan o'zining tarixiy yo'nalishidagi asosiy vazifalaridan tashqari turli maqsadlarda ham qo'llanilishiga sabab bo'ldi. Shu sababdan ham kelajakda foyda va zarari muhokama qilinadigan vositaga aylandi. Sanoat inqilobi bilan raqobat muhiti kuchaygan dunyoda televidenie kapital egalari qo'lida ko'proq daromad olish uchun shaxsiy va ijtimoiy sohalarning salbiy ta'siri birinchi o'ringa chiqadigan vositaga aylandi.

Ta'lim: Televideniyaning yangiliklar funksiyasidan keyin ikkinchi muhim vazifasi - bu shaxs va jamiyatni turli jihatlarida tarbiyalashdir. Televidenie o'zining cheksiz imkoniyatlari bilan ta'lim sohasida katta o'zgarishlarga olib keldi. ²⁴ Chunki uning ham ko'zga, ham quloqqa ta'sir qilishi, bergan ma'lumotlarning doimiy bo'lishini ta'minlaydi. Asbob qanchalik ko'p his-tuyg'ularga murojaat qilsa, odamlarga ta'sir qilish, ularni g'oyalar va bilimlar nuqtai nazaridan o'rgatish osonroq va doimiyroq bo'ladi. Chunki odamlar ko'rgan narsalarining 75 foizini, eshitgan narsalarining 13 foizini va teginishlarining 6 foizini yozib olishadi. ²³ Boshqacha qilib aytganda, odam eshitgan va ko'rgan narsasining 83 foizini xotirasiga yozib qo'yadi. Shu sababdan ham televizorning ham ko'zga, ham quloqqa chorlanishi uning shaxsni tarbiyalash qudratini oshiradi.



Televizorning salbiy xususiyatlarini konturda sanash mumkin bo'lsa, bular; tajovuzkorlik, tinchlantirish, iste'mol qilishga undash, salbiy orientatsiya, madaniy buzilish, jinsiy tuyg'ularni uyg'otish va zararli odatlarni rag'batlantirish.

Agressiya: Bugungi kunda televideniye qaratilgan asosiy tanqidlardan biri shundaki, u zo'ravonlik va tajovuzkorlik elementlarini iloji boricha aniqroq ochib beradi. Televideniye ta'siri bo'yicha olib borilgan deyarli barcha tadqiqotlar ushbu elementlarning mavjudligini va ularning bolalar va yoshlarga qanchalik samarali ekanligini ochib beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, odamlar televizorda qotillik, zo'rlash va shunga o'xshash voqealarga tez-tez guvoh bo'lishadi. Misol uchun, AQSHdagi bola maktabni tugatayotganda 11 000 soat dars olsa, 15 000 soat televizor ko'radi. Bu davrda u 18 ming qotillik sahnalari va yana o'g'irlik, zo'rlash, o'g'irlik va tovlamachilikning guvohi bo'lgan. ⁴²

Agar Google qidiruv tizimiga dunyodagi islomga oid telekanallarni so'ralsa, 17 200 000 ta natija kelib chiqadi. Garchi dunyo bo'ylab dinga oid teleko'rsatuvlar ko'p bo'lsada, ularning maqsadlari mushtarak (Buyuk Britaniyadagi Hidayat TV misolida): madaniyatlararo hamjihatlikni targ'ib qilish, Islomning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va diniy masalalardagi o'rniga to'xtalish, dunyoda tinchlik va sakinatga erishmoqchi bo'lganlarga yo'l ko'rsatish, Qur'on va sunnatga muvofiq amallarni anglatish, G'arb va Sharq madaniyatlari o'rtasida sog'lom munosabat va fikr bildirishda ko'prik vazifasini bajarish, barchaga ta'lim, jamiyat, madaniyat, psixologiya, etika va din borasida axborot taqdim etish.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, televidenie-shaxsiyati endigina shakllana boshlagan bolalar va yoshlarga nisbatan tajovuzkorlik nuqtai nazaridan jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ekranida ko'rilgan zo'ravonlik sahnalari odamlarni ko'rganlarini ijtimoiy hayotda qo'llashga undaydi. Shuning uchun ekrandagi zo'ravonlik ko'chaga to'kilib, individual muammo emas, balki ijtimoiy muammoga aylanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/tarbiya-uz/>
2. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/-5234746> Murojaat vaqti: 23.04.2022. 23:08.
3. O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti. Murojaat vaqti:15.02.2022. 20:50.
4. Category: Islamic television networks – Wikipedia. Murojaat vaqti: 7:45/ 12.05.2022
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Hidayat_TV. Murojaat vaqti: 7:54/ 12.05.2022